



SHOMON CHORLOVLARINING JANR TABIATI XUSUSIDA

Utkir Aralov

TAFU tadqiqotchisi

Email:

ORCID:

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15735466>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 15-Iyun 2025 yil

Ma'qullandi: 20-Iyun 2025 yil

Nashr qilindi: 25-Iyun 2025 yil

KEYWORDS

shomon, mifologik homiy, chorlov, ruh, pir, avliyo, folklor

ABSTRACT

Mazkur maqolada o'zbek shomon marosim folklorida faol ijro etiluvchi shomon chorlovi janrining o'ziga xos xususiyatlari borasida mulohaza yuritiladi. Shomon chorlovlarining shomonning mifologik homiylarini yordamga chaqirishi, mifologik homiylarning kimlar ekanligi, ularni ifodalash usullari, shomon chorlovlarining ijro o'rni va ijro uslubi borasida tadqiqot olib borilgan. Muallif tadqiqot so'ngida shomon chorlovlarining spesifikasi borasida o'zining yakuniy nazariy xulosalarini keltigan.

Introduction

Shomon chorlovlarini o'rganish ajdodlarimizning qadimiy mifologik tasavurlari va badiiy tafakkur tadrijiy takomili bosiqichlarini o'rganish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Shomon folklori atamasi o'zbek filologiya ilmida keyingi paytlarda iste'molga kirib kelgan so'zlardan. Yangi asr boshlaridan folklorshunos O.Qayumov o'zbek shomon marosim folklorining turli masalalariga bag'ishlangan maqolalar elon qildi. Olimning shomon folklorining asosiy janrlar tarkibi, shomon chorlovlari borasidagi ilmiy maqolalari bizning bu borada alohida ilmiy kuzatishlar olib borishmizga sabab bo'ldi[6.p.78-81].

Methods

O'zbek shomonlari tomonidan amalga oshiriladigan marosimlarning verbal qismida shomon chorlovlari muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki marosimning asosiy magik jihatlari chorlov vositasida, undan keyingi jarayonda amalga oshiriladi. Shomon chorlovlarida bemorning tanasiga singib olgan yovuz ruhlarni quvish uchun homiy ruh sifatida tasavvur qilinadigan pirlarni chaqirish motivi ustivorlik qiladi[7. P.59]. Taniqli rus folklorshunosi, shomon marosimlari folklorining yirik tadqiqotchisi Ye.S.Novikning yozishicha, «Ruhlarini chorlash shomon afsungarlik marosimining asosiy qismini tashkil etadi. Marosim aytimlarini kuzatishlar natijasiga ko'ra, matnda hamisha uchrashi kuzatilgan aytim tarkibi sifatida ruhlarni chorlash hodisasi ularning mustaqil janr ekanligini tasdiqlab turadi»[10. – C.11]. Sibir turkiy qavlari shomonlari materiallari asosida chiqarilgan mazkur xulosa bevosita o'zbek shomon chorlovlariga ham xos deb hisoblaymiz. Etnograf V.N. Basilovning qayd etishicha, o'zbek qozoq uyg'ur shomonlari ruhlarni chorlash aytimlarini childirma (doira) jo'rligida qoraqalpoq shomonlari esa, qo'biz jo'rligida ijro etishadi va homiy ruhlar madadi bilan bemor tanasidagi yovuz ruhlarni haydash maqsadida aytiladi [2.– C.17].

Discussion

Etnografik adabiyotlarda shomon chorlovlaridan kplab namunalar keltiriladi. A.V.Anoxin "Oltoy shomonligiga doir materiallar" nomli kitobida shomon chorlovlaridan namunalar chop ettirgan edi. N.R.Oynotkinovanning ta'kildashicha, bu oltoylıklar o'tmishida keng ommalashgan shomoniylik xususidagi yagona asar sanaladi[11]. A.V.Anoxin tomonidan 32 yoshli Polshstop ismli, tubalar urug'iga mansub, Aramyos (Aramös) daryosi qirg'og'ida istiqomat qiluvchi shomon tomonidan ijro etilgan chorlovda: 1) qondosh ruhlar, vafot etgan qarindoshlar ruhlari: Chuduk, Sergey, Semenek, Tiskinek i Sangызak, Arshan (Arjan-shomon ayol, Badi-shomon i Kyok-Yolyo – Polshstopning xotini tomonidan qarindosh shomonning ruhi); 2) tog' va ko'l ruhi: uch shoxli Kara-Kaya va Ker-Buura (Ych myysty Kara-Kaya i Ker-Buura); 3) samo ruhlari (yuqori turuvchi xudo): Karshyt, Puura-Kaan –Ulgening o'g'illari; 4) qora ruhlar (kara tos): Karash va Kerey –Erlikning o'g'illari (yer osti olami hukmdori) va boshqalarning ruhlari chaqirishi qayd etilgan[1.-C.66].

Shomon chorlovlari borasida mulohaza yuritgan olimlar: P.G.Bogatirov, Ye.S.Novik, I.N. Gemuyev, B.I.Sarimsoqovlar[3.- s.393;10.- s.11; 4.-s.68; 12.-b.144] tadqiqotlarida chorlov janri borasida to'liq mulohazalar mavjud emas. Ye.S. Novik shomon chorlovlari bir butunlikda o'rganishni tavsiya etadi. P.G. Bogatirov esa, shomon marosimlari tarkibidagi chorlovlarning magik xususiyatlarini e'tirof etmaydi, balki uni marosimning verbal qismi sifatida baholanishi, marosim esa qadimiy teatr sifatida san'at asari namoyishi ekanligini qayd etadi. I.N. Gemuyev chorlovlar haqida bergan ma'lumotida bu janrdagi asarlarning o'ziga xos jihatlarini ochib berishga e'tiborni qaratmaydi. Biroq shomon chorlovlarida ruhlarga murojaat motivining mavjudligini ta'kidlaydi. O'zbek folklorshunosi B.I.Sarimsoqov so'zning magik qudratiga asoslanuvchi o'zbek marosim folklori janrlari tarkibida shomon chorlovlari ham mavjudligini e'tirof etadi, ammo faqat o'zbek xalq materiallari asosida bu janrning o'ziga xosligini ochib berish imkoni yo'q, deb hisoblaydi. Ularning janr tabiatini oydinlashtirish uchun qarindosh xalqlar shomon chorlovlari bilan qiyosiy tahlillar o'tkazish, buning uchun mustaqil tadqiqot olib borish lozimligini to'g'ri qayd etadi. Shuningdek, B.I. Sarimsoqov o'z tadqiqotida shomon chorlovlari «shaman chaqiriqlari» deb ataydi. Folklorshunos O.Qayumovning tadqiqotlarida shomon chorlovlari atamasi ostida alohida janr mavjudligi qayd etiladi[8. – S.79-85]. Olim o'zbek shomon marosim folklori materiallarini to'plash asosida shomon chorlovlarning shomon marosim folklori verbal qismida juda faol qo'llaniluvchi janr ekanligi to'g'ri qayd etadi[13.-P.59-65].

Results

Shomon chorlovlari shomon marosimi aytimlarining ibtidosida ijro etiladigan janr bo'lib, shomonning mifologik homiylari, avliyolar ruhlari chorlash va ulardan madan so'rash motivi asosiga quriladi. Samarqand viloyati, Nurobod tumani, Tim qishlog'ida istiqomat qiluvchi 77 yosh Baxmal momdan folklorshunos O.Qayumov yozib olgan "Qo'chiriq" matnida shomon o'z mifologik homiylarini chorlashi va ulardan madad so'rashi o'rniga e'tiborni qaratmoqchimiz:

Momonga mol,
Boshimga bosh urgan buzruklar,
Oqdaryoning haqidan.
Momolarning haqidan,
O'zlingiz qo'llangiz.

Qirq bir chilton qo'llangiz,
Dalada yursa qo'llangiz,
Ostonabobo qo'llangiz.
Qirq bir chiltonning haqqi,
Momolarning doni,
Aylanayin momolar,
Bismillodan jo'l bo'lsin.
Momo haqi bismillodan,
Tarat haqi bismillodan.
Doira haqi bismillodan,
Bismillodan jo'l oldim.
Arab ota avliyo
Sharqiragan dovushingdan,
Zarqiragan tovushingdan,
Men sizlarni yod qildim.
Murodxonday Eshonim,
Qoratovday xil-xillagan
Cho'pon ota qo'llasin.
Tabiqlarni ko'targan,
Dovud bobo qo'llasin.
Momolarning haqidan,
Burildim men yo'limga.
Xizr ota buva,
Ollo, sarson bug'anman.
Tovba qildim Xudoyim,
Bulzotlarning qasdidan.
Hay-Hay boshim.
Aylanayin momolar,
Aytganimni qilmasang,
Ollo taolo bir xudoy.
Tovba bilan yurgandim,
Urxun xati qo'llasin,
G'oyib ota qo'llasin.
Yo, oblahu, yo, oblo, yo, oblo,
Ey, payg'ambarlar qo'llasin.
Yo, Mustafo, yo, oblo,
Yo, tag'i digiz yovla,
Yo oblahu, yo, oblo,
Yo, Muhammad, yo, oblo,
Qo'llamoqlik sizdan,
Yod olmoqlik bizdan.
Qodir ota otamiz.
Men Haydar,
Ko'p Haydar,



Ko'ch, ko'ch, ko'ch[14.-B.82-83].

Shomon chorlovlarida shomonning mifologik homiylari sanalgan, shomonga bemorni davolashda yordam berishiga ishongan ruhlarning nomlari zikr etilib, shomon ularni yopamga chaqiradi. Yuqoridagi matnda Ostonabobo, Dovudbobo, Xizr, Qodir ota, Mustafo, payg'ambarlar, qirq bir chiltan, momolar kabi mifologik majudotlar bilan birga tarixiy shaxslar: Murodxon eshon nomi ham keltiriladi. Aslida Ostonabobo ham tarixiy shaxs Ilyos shayxning xal tomonidan qo'yilgan nomi. Alisher Navoiynining "Nasoyim -ui muhabbat" asarida Samarqandlik ikkita Ilyos ismli shayxning yashab o'tganligi haqida ma'lumot keltiriladi. Mutafakkir bu shayxlarning biri Nur qal'asida chashmaning kun chiqar tomonida qabri bo'lgan shayx Ilyos bo'lsa, ikkinchisi Tim tog'i etaklarida yashagan Murshidi Ilyos ekanligini qayd etadi. Demak, shomonning aksariyat mifologik homiylari tarixda yashab o'tgan aliyolar, shayxlar, eshonlar, o'zidan oldin o'tgan shomonlar bo'lar ekan. Shunday ekan, shomonning mifologik homiylari har doim ham afsonaviy mifologik personajlar bo'lavermaydi, balki shomon yashagan hududlarda undan oldin yashab o'tgan karomatli shaxslar ham vafotidan keyin shomon mifologik arsenalida mifologik homiy sifatida talqin etiladi. Mifshunos olim Yan Parandovskiyning ta'kidlashicha, miflarda tasvirlanuvchi qahramonlar juda qadimiy bo'lib, ularning dastlabkilari "O'z vatandoshlariga xizmat qilib, alohida hurmat qozongan buyuk kishilar: urug', qabila boshliqlari, qonunshunoslar, mashhur jangchilar, ruhoniy-kohinlar, payg'ambarlar, buyuk shoirlar bo'lib, ular vafot etganlaridan keyin xalq orasida qahramonga aylanib, ularga sig'inish boshlangan[12].

Ushbu turli toifadagi buyuk shaxslar ibtidoiy inson tasavvurida karomatli shaxslar sifatida namoyon bo'lgan va ular ruhiga sig'inish odati paydo bo'lgan. Keyinchalik esa ular homiy sifatida tan olinib, manistik mifologiyaning qahramonlari timsolini egallaganlar.

Shomoniylkning asosi shomonni o'zga olam va odamlar olami o'rtasidagi vositachi ekanligida ko'rinadi. Shomon zamin olami vakillari oddiy odamlarning tanasiga joylashib olgan yovuz ruhlarni o'zining mifologik homiylari bo'lgan, avliyolar, payg'ambarlar, eshonlar ruhlari, momolari, parilari, bobolari ko'magida haydab chiqaradi. Shomon mifologik homiylari sirasida qayd etilgan qirq bir chiltan ham aslida qirq chiltan - ya'ni qirq tandir. Biroq, shomonlarning amaliyot jarayonida improvizatsiya qilish an'anasi chiltanlar sonini bir nafarga oshirishini keltirib chiqargan ko'rinadi.

O.Qayumov tomonidan 2007 yilda Samarqand viloyati Nurobod tumani Sevrni qishlog'ida istiqomat qiluvchi 70 yoshli Oydin momodan yozib olingan shomon chorlovida yolg'iz mifologik homiyni chorlash holati ko'zga tashlanadi:

Sariqiz momo sardorim,
Eshigingga qul bo'ldim.
Tuzligingga tuz momo,
Botim-botim joylarga,
Botmonlatib oldim men.
Moyib bo'lgan joylarga,
Qonlar berib oldim men.
Zulm bermang o'zimga,
Kasr qilmang ko'zimga.
Yo, Sariqiz momo sardorim,
O'zing madad bergin.

Man sig'indim Sariqiz momomga
Olloh yordam bersin bandamga.
-deb marosimni tugatadi[14. – B.93].

O'zbek mifologiyasida sariqiz aksariyat hollarda demonologik obraz sifatida talqin etiladi. Odatda sariqiz odamlarga yovuzlik keltiruvchi ruh timsoli. Biroq, oynid baxshining mifologik homiysi sifatida odamlarga yaxshilik qilish vazifasi ko'zga tashlanadi. Demak, har qanday mifologik obraz insonga munosabati bilan bog'liq vazifalarida shomonning mahorati ta'sirida o'z vazifasini o'zgartirishi mumkin ekan.

Shomonning shomon marosimlarida mifologik homiylariga murojaat qilishi va chorlov ijro etishi o'rni turlicha, yuqorida ko'chiriq marosimida shomon o'z mifologik homiylarini chorlov janri ijrosi orqali davrga taklif qilganligini ko'rib chiqqan edik. Quyida "Alas" marosimi jarayonida shomonning chorloviga e'tiborni qaratimiz:

Gul tagida turganlarim,
Guldan toza qilinglar,
Qo'y po'stini kiyganlarim,
Tan po'stinga kirganlarim,
Qir tanadan enganlarim,
Tog'u toshga borganlarim,
Marjon mashog' terganlarim,
Man sizlardan aylanayin.
Molu jonimga, ro'zg'orimga,
Bala-chaqamga,
Yetti pushtimga,
Yetkirmang ziyon.
Man sizlardan aylanayin,
Onajonlarim, momojonlarim,
Man sizlarga sig'indim.
Aytganlaringizni qilayin.
Yo'llaringizdan yurayin,
Chiroqlariz yoqaman.
Bismillohir-rohmanir rohim,
Mani qo'lim emas,
Qo'l bergan ustozimning qo'li,
Pirimning qo'li.
Anbar onam,
Qambar onam, Emchi onamning qo'li,
Iloho omin.

Ko'rinadiki, marosimni boshlash jarayonida shomon o'z mifologik homiylariga yuzlanib:

Gul tagida turganlarim,
Guldan toza qilinglar,
Qo'y po'stini kiyganlarim,
Tan po'stinga kirganlarim,
Qir tanadan enganlarim,
Tog'u toshga borganlarim,

Marjon mashog' terganlarim,

Man sizlardan aylanayin,

-deya murojaat qiladi. Shomoniyluk miflogiyasiga doir xalq qarashlarida parilar gul ostida bo'ladi deb tasavvur qilinadi[16.– B. 45]. Shomonning mifologik homiylarini chorlashdagi mazkur matnda mifologik homiylarning qo'y po'stini kiyishi – ya'ni qo'y terisini yopinib yuruvchi darvesh talqini, tog'u toshga borib yuruvchi, marjon va moshog'bug'doyning boshog'ini terib tirikchilik qiluvchi, bu dunyo moddiyatidan voz kechgan darvesh, ammo karomatli bo'lgan zotning ruhiga murojlat turibdi. Mifologik homiylarning ruh ekanligi chorlovning "tan po'stinga kirganlarim" satrida ochiq ifodasini topgan.

Ma'lumki, shomoniyluk tasavvurlariga ko'ra, yovuz ruhlar odamlarning tanasiga joylashib oladi. Ezgu ruhlar ularni bemor tanasidan quvib chiqarishda shomonga yordam beradi. Bu o'rinda shomonning o'zi etirof etishicha, ezgu ruh sifatidagi mifologik homiy shomonning tanasiga kirib oladi. Buni shomon "tan po'stinga kirganlarim" deb e'tirof etmoqda. Mifologik homiylarning shomon yoki bemor tanasiga joylashishi, tog'u toshlarni kezishi, suv ostidan marjonlar, yer yuzidan mashog' terishi, gul tagida o'tirishi va bemor tanasini guldan toza qilishi, muhimi, ularning ba'zilar qir tanadan enganlar ekanligini aytilib ularga iltijo qilishi mifologik homiylarning asl ismlarida umumiy qarashlarni keltirib chiqargan. Odatda shomonlar o'z mifologik homiylarini chorlaganda ularning ismlarini aytib chorlaydi. Ammo keltirilgan alas aytimi boshidagi chorlovda mifologik homiylarga yalinish motivi yetakchilik qiladi, shomon ulardan yordam so'rab murojaat qiladi, biroq ularning aynan kim ekanligi sirlicha qoladi.

Shomoniyluk an'anasiga ko'ra, shomonning o'zga olam vakillari bilan muloqotlari, ularning shomonga yordam berishi, xususan, parilar yoki chiltanlar bilan suhbat va uchrashuvlari borasida shomon hech kimga gapirmasligi lozim. Mifologik homiylarning shomon bilan muloqotlari sir saqlanishi talab etiladi. Agar shomon o'z mifologik homiylari haqidagi ma'lumotlarni ularning roziligisiz oshkor qilsa, mifologik homiylar tomonidan jazolanadi. Bunday tabu shomonga uning mifologik homiylari tomonidan qo'yiladi. Shuning uchun ko'pchilik shomonlar o'zlarining mifologik homiylarini *bobolar*, *momolar* deb umumiy nom ostida ataydilar. Bobolar erkan kishi qiyofasidagi ruhlar bo'lib, ular qaysidir shayx yoki avliyoning ruhi bo'lishi mumkin. Momolar esa, o'tmishda yashab o'tgan shomon ayol, parilarning umumiy nomini anglatadi.

Onalar, momolar singari shomonning mifologik homiysi umumiy nom ostida tilga olinish an'anasi teluyet shomonlari materiallarida ham uchraydi. Xususan, o'tgan asrning 1949 yili N.P.Direnkova tomonidan e'lon qilingan shomon chorlovlari orasida Sibir turkiy qavrlarining alas qo'shiqq'i keltiriladi. Ayni alas aytimida ham onalar umumiy nomi ostida shomonning chorlayotgan mifologik homiylari umumlashtirilganligi kuzatish mumkin[5.–C123.].

Shomon chorlovlarida mifologik homiyning garchi pari bo'lsa-da, aynan ismini aytib chaqirish hollari ham kuzatiladi:

Simyon pari sunib kel,

Ola pari anglab kel,

Qora pari qarab kel,

Sori pari sayrab kel.

Chinor pari chidab kel,

Barakalla shovvozim,

Keltirilgan og'zaki matnda shomonning mifologik homiysi bo'lgan Simyon pari, Ola pari, Sori(sariq) pari, Qora pari, Chinor pari kabilar tilga olinadi. Shomon o'z mifologik homiysi bo'lgan parilarini asosan tashqi ko'rinishi, aniqrog'i rangiga qarab nomlagan. Chorlovda mifologik homiylarning umumiy nom yoki shomongagina tushunarli bo'lgan nom (Chinor pari singari) bilan atalishi shomon chorlovining spsifik xossalaridan biri sanaladi.

Sanbar baxshi repertuaridan yozib olingan qo'l olish marosimida marosimni boshlashdan oldin shomonning o'z mifologik homiylarini chorlashi quyidagicha ifodalangan:

Yer yuzida avliyo,
Avliyolar qo'llasin.
Tobutdagi farishta
Farishtalar qo'llasin.
Pirlar madadkor bo'lsin,
Avliyolar pir bo'lsin.
Lashkar tuzing momolar,
Pirlar madadakor bo'lsin.¹
Qonxo'rlarga qon berdi,
Jonxo'rlarga jon berdi.
Momolar qo'shig'in boshladi,
Momolar ko'nglin g'ashladi.
Yo'l beringiz momolar,
Qo'l beringiz momolar.
Surpangizni yozaylik,
Nimayki qilsa tilak,
Farishtalar qo'llasin.
Pirlar madadkor bo'lib,
Yo'llarini ochsinlar.
Yer yuzida avliyo,
Avliyolar qo'llasin,
Pirlar madadkor bo'lsin[17.- B.79-80].

Chorlovning mazkur variantida shomonning etiqodiy qonuniyatlari ochiqroq namoyon bo'lgan:

Yer yuzida avliyo,
Avliyolar qo'llasin.
Tobutdagi farishta
Farishtalar qo'llasin.
Pirlar madadkor bo'lsin,
Avliyolar pir bo'lsin.

Demak shomoniyilik e'tiqodiga binoan barcha avliyolar shomonning mifologik homiysi, ular pir. Shuningdek, farishtalar aynan tobutdagi farishtalarga murojaat alohida ahamiyat kasb etadiki, bu shomonning o'zga olam vakillari bilan muloqotini bildirib turadi. Samarqand viloyati, Nurobod tumani, Ag'ron qishlog'ida istiqomat qiluvchi Zulayxo momodan

folklorshunos O.Qayumov yozib olgan “Suq chiqarish” marosmida shomon o‘z mifologik homiylarini chorlashining o‘zgacha uslubi ko‘zga tashlanadi:

Ey onajonlarim,
Ey momojonlarim,
Ey ollohim,
Qo‘l bergan ustozlarim, pirim,
Anbar onam, Qambar onam,
Emchi onam,
Man sizlarga sig‘indim.
Man sizlarga sig‘indim.
Nima desangiz
Aytganlaringizni qilayin.
Yo‘llaringizdan yurayin,
Chiroqlariz yoqaman.

Mazkur chorlovda onajonlar, momojonlar, qo‘l bergan ustozlar, Anbar ona, Qambar ona kabi mifologik homiylarning ismini ochiqlanishi va yashirin kelish hollari kuzatiladi. Demak, shomon ismini ochiqdaydigan mifologik homiylari hammaga ma‘lum bo‘lgan ilohiy shaxslar – Anbar ona, Harazti Dovud payg‘ambar singarilar, ismi ochiqlanmaydigan onajonlar, momojonlar esa, parilar – G‘ayb olami vakillari sifatida tushunilishi lozim.

Conclusion

O‘zbek shomon marosim folklorining eng faol ijro etiluvchi janrlaridan biri shomon chorlovlarining o‘ziga xos xususiyatlari borasidagi mulohazalarimizni quyidagicha umumlashtiramiz:

1. O‘zbek shomon chorlovlari shomon marosimlarining deyarli barchasida ijro etiladigan folklor janridir. U shomon marosimida shomon tomonidan ba‘zan doira jo‘rligida, ba‘zan musiqiy asbob ishtirokisiz ijro etiladi.

2. Shomon chorlovlarining asosiy obrazlari shomonning mifologik homiylaridir. Shomonning mifologik homiylari tarixda yashab o‘tgan karomatli shaxslar, dindorlar, avliyolar, payg‘ambarlar bilan bir qatorda umumiy fonda mifologik mohiyat kasb etuvchi momolar, parilar, bobolardan iborat bo‘ladi.

3. Shomon chorlovlari asosan marosim jarayonida shomonga yordamga chaqiriladigan ruhlarning nomlarini aytib ularga tavsif berish orqali alqab taklif etishga qaratilgan og‘zaki qo‘shiq bo‘lib, har bir ijrochi repertuarida alohida-alohida variantda uchraydigan, doimiy ijodiy ishlanib boruvchi va ijrochining hozirjavobligi orqali yangilanib boruvchi janrdir.

Shomon chorlovlari shomon tomonidan har xil shomon marosimlarida (ba‘zan bir xil marosimda ham) har gal yangi variantda ijro etiluvchi janr bo‘lib, qo‘shiq matnida mifologik homiylarning qayd etilish tartibi, ularning funksional vazifalari almashib turishiga asoslangan qo‘shiq matnidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Анохин А.В. Материалы по шаманству у алтайцев. – Л., 1924. – С. 66.
2. Басилов В.Н. Исломированное шаманство народов Средней Азии и Казахстана. АДД. Москва, 1991. С. 17.
3. Богатыров П.Г. Вопросы теории народного искусства. Москва, 1971.-С.393

4. Гемуев И.Н., Сагалаев А.М. Религиуа народа манси. Култовые места XIX – начала XX в. Новосибирск, 1986. -С. 68;
5. Дыренкова Н.П. Материалы по шаманство телеутов // Сборник музея антропологии и этнографии, т. X.–М.: 1949. – С.123.
6. Kayumov, O. The place of the fayeriye in shaman ceremony folklore. International Journal on Integrated Education, 3(10), 78-81.
7. Kayumov, O. S. "Surpa renovation" as a shamanic ritual. Voprosy nauki i obrazovaniya, 59.
8. Kayumov, O. (2018). Шамонские завоеваниуа-фолклорный жанр. Иностраннауа филологиуа: уазык, литература, образование, 3(3 (68)), 79-85.
9. Kayumov, Olimjon. "The place of the fayeriye in shaman ceremony folklore." International Journal on Integrated Education 3.10: 78-81.
10. Новик Е.С. Фолклор-обруад-верованиуа: опыт структурно-семиотического изучениуа текстов устной културы // Диссертатиуа в форме научного доклада по совокупности опубликованных работ на соискание ушеной степени доктора филологических наук. Москва, 1995.-С.11.
11. Ойноткинова Н.Р. Поэтика шаманских призываний алтайцев // <https://сйберленинка.ру/>
12. Парандовский Ян. Мифологиуа. М., 1971.
13. Ро'зимбоев С.Ро'зметов Н. Фолклор атамалари қисқасча луг'ати. – Урганч, 2007.
14. Саримсоқов Б. О'збек маросим фолклори. Тошкент, Фан, 1986. –Б.144.
15. Sadiriddinovitch, K. O. (2019). Surpa renovation" as a shamanic ritual. Voprosy nauki i obrazovaniya, (7 (53)), 59-64.
16. Qayumov O. Pari haqidaги халқ қарашлари. О'збек тили ва адабиёти. 1996.№ 1. 45-48.
17. Qayumov O. O'zbek sehrlі marosimlari.– Toshkent, 2024. – 146 b.